
Kambag'allikdan farovonlik sari

Davlat rahbari tomonidan "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi farmon qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, tumanimizda ham keng ko'lamdagi ishlar olib borilmoqda.

Xususan, Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xoliqov tomonidan "Abdullabayon" mahallasida ijtimoiy himoya reestrida turadigan oilalarning yashash va turmush sharoitlarini o'rganildi.

O'rganishlar davomida o'rganish jarayonlari, aniqlangan muammolar va bartaraf etish choralari haqida so'z bordi. Bu oilalar a'zolarini ishga joylashtirish, o'zini o'zi band qilish, tadbirkorlikka yo'naltirishga amaliy yordam berib, kambag'allikdan chiqishga ko'maklashish vazifalari belgilab olindi.

2024-12-24 08:24:10